

ISSN: 2181-1601

SCIENTIFIC JOURNAL IMPACT  
FACTOR (SJIF 2022=5.016)

**SCIENTIFIC  
PROGRESS**

**ACCEPTANCE AREAS OF THE JOURNAL**

- mathematics, physics, informatics;
- chemistry, ecology, geography;
- biology, medicine, psychology;
- history, law, aesthetics;
- philology and language teaching;
- physical education and sports;
- music, art and culture;
- philosophy, logic and sociology;
- architecture and economics;
- pedagogy, psychology, defecatology



[www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz)



**VOLUME 4  
ISSUE 3**



**2023/03**



2/179



Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016)  
Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257>

# SCIENTIFIC PROGRESS

## Scientific Journal

VOLUME #4, ISSUE #3, MARCH 2023

ISSN: 2181-1601



UZBEKISTAN

## CONTENTS

**Bakhodirjon Sharipovich Samadov**

Magnesium deficiency and its correction with vegetable tincture tincturae morus (pp. 4-12)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20001.%204-12.pdf>

**Madina Fazliddinovna Saidvaliyeva**

Shaxslarda emotsiyalni rivojlantirish tendensiyalari (pp. 13-17)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20002.%2013-17.pdf>

**Д. В. Бобожонов**

Пелитовый туффит - в качестве добавок для портландцементного клинкера (pp. 18-21)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20003.%2018-21.pdf>

**Shahrizoda Elbek kizi Ergashova**

Interactive methods of developing pupils' oral speech in teaching foreign languages (pp. 22-25)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20004.%2022-25.pdf>

**Shahrizoda Elbek kizi Ergashova**

The use of "to be" as the main verb in English (pp. 26-30)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20005.%2026-30.pdf>

**Akbar Farhodovich Norqulov**

O'rta Osiyoda pedagogik qarashlar taraqqiyoti (pp. 31-35)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20006.%2031-35.pdf>

**Laylo Khaydarova**

Effective and modern methods of teaching listening skills (pp. 36-42)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20007.%2036-42.pdf>

**Yanglish Abduvali qizi Qarshiyeva**

Ahmad Yassaviy hikmatlarining psixologik tahlili (pp. 43-48)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20008.%2043-48.pdf>

**Мадина Баҳтиёрова Хужаева**

Kiyimlarni tikishda inson tanasi o'lchamlarini olish usullari (pp. 49-57)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20009.%2049-57.pdf>

**Muftax Khamidovich Khakimov, Nodirjon Baxtiyorovich Karimov**

Shahar transportlarida optimal yo'naliishi tanlovchi axborot tizimining mobil naqlini yaratish (pp. 58-68)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20010.%2058-68.pdf>

**Asror Yusupov**

Methodology for the Analysis of Linguocultural Units in Mass Media Texts: A Review of Approaches and Methodologies (pp. 69-72)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20011.%2069-72.pdf>

**Нұркелді Манабаев, Усербай Байқабилов**

Mұхтар Әуесов шағынын прозасы хақында (pp. 73-78)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20012.%2073-78.pdf>

**Асем Корганова, Усербай Байқабилов**

Үш бәйтерек – үш ғұмыр (pp. 79-82)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20013.%2079-82.pdf>

**Annasoltan Narbayevna Arazdurdiyeva**

Humor in the novel "The posthumous papers of the Pickwick club" by Charles Dickens (pp. 83-86)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20014.%2083-86.pdf>

**Zarina Zafar qizi Komilova**

Jamiyat taraqqiyotida axborotlashganlik ahamiyati (pp. 87-91)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20015.%2087-91.pdf>

**Nilufar Esanova Xamdamova, Aziza Erkin qizi Ergasheva**

Some views on sociocultural theories in language acquisition (pp. 92-94)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20016.%2092-94.pdf>

**Dilnozaxon Otabek qizi Murotova**

Shekspir tragediyasida remarkalar o'rnini va tahlili uning asar badiiyatidagi o'rnini (pp. 95-96)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20017.%2095-96.pdf>

**Азада Махаммадқарім қызы Абдуғафурова, Гулжан Азизбековна Анарбекова**

Қазақ тіл білімінде көс сөздердің зерттелу тарихы (pp. 97-99)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20018.%2097-99.pdf>

**Гаухар Жорабай қызы Ибадуллаева, Гулжан Азизбековна Анарбекова**

Тілдің интонациясы – көп функциялы құбылыс (pp. 100-104)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20019.%20100-104.pdf>

**Дияра Нурлан қызы Илесова, Гулжан Азизбековна Анарбекова**

Жай сейлемнің магынасын зерттелудегі көзқарастар (pp. 105-108)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20020.%20105-108.pdf>

**Гаухар Жора қызы Казибаева, Гулжан Азизбековна Анарбекова**

Құрмалас сейлемді топтастыру мәселесі (pp. 109-114)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20021.%20109-114.pdf>

**Жұлдыз Турап қызы Тешебаева, Гулжан Азизбековна Анарбекова**

Тұрлаусыз мүшелердің өздеріне тән морфологиялық тұлғасы (pp. 115-117)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20022.%20115-117.pdf>

**Гулжан Саulet қызы Ермекбаева, Гулжан Азизбековна Анарбекова**

Тіл білімінде лексиология мен семасиологияның зерттеу объектісі (pp. 118-121)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20023.%20118-121.pdf>

**Зарина Адил қызы Кучкарова, Гулжан Азизбековна Анарбекова**

Сөз тіркесі жүйесінің қалыптасуы (pp. 122-125)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20024.%20122-125.pdf>

**Kamoliddin Rasuljon o'g'li Sharipov, Qizlarxon Muqimjon qizi Orifjonova, Zarnigor Otabek qizi Ro'ziyeva**

Ma'lumotlar bazasining geometrik modeli (pp. 126-131)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20025.%20126-131.pdf>

**O. U. Xakimjonov, S. I. Muhammadjonova, I. N. Tojimatov**

Ma'lumotlarni intellektual tahlil qilishda data mining qo'llash (pp. 132-137)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20026.%20132-137.pdf>

**Muxlisa Otabek qizi Otabekova, Minavvarxon Xushnudbek qizi Mahkamova, Husniddin Murodillo o'g'li Ibrohimov**

BIG DATAning tibbiyotdagı o'rni va ahamiyati (pp. 138-144)

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/4-3.%20027.%20138-144.pdf>

**JAMIYAT TARAQQIYOTIDA AXBOROTLASHGANLIK AHAMIYATI****Zarina Zafar qizi Komilova**

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistikasi kafedrasi o'qituvchisi

[zarinakomilova98@gmail.com](mailto:zarinakomilova98@gmail.com)**ANNOTATSIYA**

Raqamli texnologiyalar - insoniyat kelajagi. Ular inson va davlat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga hissa qo'shadilar. Ma'lumotlarni raqamlashtirish mamlakatning rivojlanish ko'rsatkichlarini oshiradi. Barchamizga ma'lumki, ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarini bilish o'zaro muloqot va axborot almashinuvining yangi imkoniyatlarini, shakllarini ochadi hamda kengaytiradi. Eng muhimi, fuqarolik jamiyatni barpo etilishi va mustahkamlanishiga ko`maklashadi, iqtisodiy islohotlar va mamlakatning demokratik rivojlanish jarayonlarini jadallashtirish imkonini beradi. Xususan, O'zbekiston ham dunyo global axborot jamiyatida munosib o'rinni egallashga intilmoqda. Ushbu maqsadlarga erishish uchun Hukumat tomonidan OAV bilan hamkorlikda mamlakatda axborotlashtirishni kuchaytirish, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tez sur'atlarda rivojlantirish, ularni jamiyatning barcha sohalarida joriy etish hamda foydalanishning ustuvor yo'naliishlari amaliyotda keng qo'llanilib kelinmoqda. Shu sababdan, boshqa rivojlangan mamlakatlar qatorida O'zbekistonda ham elektron hukumat tizimini yaratish, uning barcha imkoniyatlarini hamma sohalarda joriy etilishi natijasida davlat boshqaruvi samaradorligini jiddiy ravishda oshirish, davlatning umuman jamiyat bilan hamda uning ayrim instittlari va fuqarolar bilan o'zaro munosabatlarini optimallashtirish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** axborotlashtirish, fuqarolik jamiyat, electron hukumat, OAV, Internet, kommunikatsiya, mobil, axborot texnologiyalari, ochiq ma'lumot.

Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi hamma joyda ko'p qirrali tendensiyalarni, shu jumladan, inson faoliyati sohalari va jamoat institutlarini o'zgartirishni talab qiladi. Axborot asrining talablarini hisobga olgan holda siyosiy institutlar va davlat boshqaruvini o'zgartirish sharoitida milliy hukumatlar o'z oldiga bugungi va istiqboldagi dolzarb vazifa qilib – axborotlashtirishni va buning negizida fuqarolik jamiyatining samarali shakllanishi, faoliyat yuritishi va rivojlanishini ta'minlashni qo'ydi.

Axborotlashtirish – yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayonidir.[1]

**Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016)**  
**Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257>**

Fuqarolik jamiyatni va alohida individlarning manfaatlari esa o‘z ichiga davlat va uning organlari axborotlarining ochiq bo‘lishiga ehtiyoj sezadi. Axborotning ochiqligidan davlatning o‘zi ham manfaatdordir.

Axborotning ochiqligi – bu har qanday demokratik davlatning tavslifi hisoblanadi. Davlatning axborot ochiqligi qanchalik yuqori bo‘lsa, u shunchalik huquqiy davlat belgilariga ega bo‘lgan siyosiy institut hisoblanadi. Hukumat hujjalari va axborotlariga kirishni ta’minalashni osonlashtirish va qulayshtirishga intilgan davlat fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun keng shart-sharoitlar yaratib beradi. Davlat boshqaruvining sifati va demokratik harakter kasb etishi hukumatning aholini “eshitish” va “tinglash”ga tayyor ekanligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bogliqdir.[2]

Axborotlashgan jamiyat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari natijasida kirib kelgan zamonaviy taraqqiyotning eng rivojlangan fazasi hisobanadi. O‘z navbatida axborotlashgan jamiyatning shakllanishi axborotlarni jamiyatda qiymatga ega va egalik qila olish mumkin bo‘lgan resursga aylanishidagi asosiy omili va sharti hamda keng ko‘lamli o‘zaro axborotli hamkorlik muhiti hisoblanadigan iqtisodiy-axborot fazoni paydo bo‘lishi bilan bir vaqtida amalga oshib boradi. O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyatni shakllanish xususiyatlarini ko‘rib chiqishni axborotlashgan jamiyat nazariyasi mohiyati va uning sanoatlashtirilishdan (industrillashdan) keyinga bosqichdagi o‘rnini yoritib berishdan boshlab tadqiq etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Amerikalik iqtisodchi olim K.Klark XX asrning 40 yillarda insoniyatning taraqqiyot bosqichida axborotli rivojlanish chetlab o‘tib bo‘lmaydigan jarayon ekanligini birinchi bo‘lib bashorat qildi.

«Axborotlashgan jamiyat» atamasi 60-yillarning boshlarida F.Maxlupo va T.Ulisao tomonidan taklif qilinib, undagi axborotlashgan jamiyat nazariyasining asosida paydo bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy qayta shakllanishlarni axborot texnologiyalarini tarqalishi bilan birgalikda tahlil va umumlashtirishga harakat qilish yotar edi.

Yana bir rus olimi N.N. Moiseyevni fikricha axborotlashgan jamiyat bu – «Jamoa Intellekti inson aqli uning tanasida qanday ahamiyatga ega bo‘lsa, aynan shunga o‘xhash ahamiyatga ega bo‘lgan jamiyatdir, ya’ni, jamiyatni rivojlanishiga va ortib borayotgan barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tishga ta’sir qiladi hamda insoniyat manfatlari uchun harakat qiladi».[3]

Shunga o‘xhash barcha ta’rif va tafsivlar yangi jamiyatning shakllanishi jarayonida axborot va bilimlarni hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Mavjud yondashuvlarni umumlashtirgan holda, hozirgi kunda «Axborotlashgan jamiyat» tushunchasini talqin qilishda quydagilar e’tiborga olinadi:

- axborotlashgan jamiyat har bir inson va davlat farovonligini bosh sharti axborotlarga to‘siqlarsiz kirish va ular bilan ishslash malakalariga ega bo‘lishdagi bilimlar bo‘lgan bilimlar jamiyati;

- axborot ayirboshlashda na vaqt, na fazoviy, na siyosiy chegaralarga ega bo'lmagan global jamiyat; bu bir tomondan madaniylatlarni o'zaro birlashishga imkon bersa, ikkinchi tomondan, har bir jamiyatga o'zini namoyon qilishga yangi imkoniyatlar ochib beradi;
- bilim va axborotlardan foydalanish, tarqatish, uzatish, saqlashga, ishlov berish, egalik qilish katta ahamiyatga ega bo'lgan jamiyat.

Axborotlashgan jamiyatni tavsiflovchi mezonlar quyidagilardan iborat:

- texnologik: ishlab chiqarish jarayonida, muassasalarda, ta'lrim tizimida keng qo'llaniladigan axborot texnologiyalari;
- ijtimoiy: axborot yashash sifatini o'zgarishlarning muhim omili sifatida yuzaga chiqadi, axborot ichiga chuqur kirib borish natijasida "axborot ongi" shakllanadi va namoyon bo'ladi;
- iqtisodiy: axborot iqtisodiyotda resurs, xizmat, tovar, qo'shilgan qiymat va bandlik kabilarning manbai sifatida barcha sohalarga kirib boruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi;
- siyosiy: axborot erkinligi siyosiy jarayonlarda turli siyosiy kuchlar va aholi ijtimoiy qatlamlari orasidagi munosabatlarni yanada rivojlantiradi, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda o'sib borayotgan ishtiroki bilan tavsiflanadigan omil hisoblanadi;
- madaniy: axborotning madaniy qadr-qimmatini alohida individ va butun jamiyat rivojining manfaatlari mushtarakligida ifodalaydi, axborot madaniy qadriyatlar va aloqalarni yanada mustahkamlaydi.

Axborotlashgan jamiyat komponentlari quyidagilardan iborat:

- axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, Internet;
- axborot-intellektual mult;
- elektron axborot markazlari, bazalari va ma'lumotlar banki, videomahsulotlar, ko'p tilli tarjimonlar, yangi tasvir vositalari;
- axborotning umumiylarini merosiy sohalari (ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari, biotexnologiyalar, farmasevtik mahsulotlar va h.k.).[4]

Axborotlashgan jamiyatni bosh maqsadi yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini yaratish va foydalanishdangina iborat bo'lib qolmay, davlatning barcha iqtisodiy tizimlarini tubdan o'zgartirish, axborot-iqtisodiy fazosini shakllantirish, mehnat umumdarligini uzlusiz oshirib borish uchun innovatsiya hamda bilimlardan amaliy jihatdan keng foydalanib, shu asosda tarzi va sifatini oshirishni ko'zda tutadi.

Taraqqiyotning mumkin bo'lgan rivojlanishida ishlab chiqarishning asosiy mahsulotlaridan biri axborot va bilimlar bo'lib boradi. Ajralib turuvchi xususiyatlari:

- jamiyat hayotida axborotlar, bilimlar va axborot texnologiyalarining ahamiyat ortib boradi;

- eski kasblarni yo‘q bo‘lishi va yangilarini paydo bo‘lishi, ulardagi ishchilar sonidagi munosabatlarni o‘zgarishi bilan bog‘liq holda jamiyat professional tuzilishi o‘zgaradi. Bir vaqtning o‘zida rivojlangan avtomatlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan ish joylari tizimini yaratish asosida individlashgan mehnatning ulushi ortib boradi. Demak, ishlab chiqarishda ishchining turi shakllanib boradi;
- axborot texnologiyalari ma’naviy madaniyatga faol ta’sir ko‘rsatib boradi, kompyuter madaniyati shakllanib boradi, madaniyat yutuqlari haqiqiy ravishda umumxalq boyligiga aylanib boradi. Kompyuterlashtirish va ta’lim uzlusizligi amalga oshib boradi;
- kishilik jamiyatining hayotiy faoliyatida globallashuv amalga oshadi. Yagona iqtisodiy xo‘jalik yaratiladi. Jamiyat global muammolarni yechish imkoniyatiga ega bo‘ladi va shu yo‘lga kiradi;

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori. 2015 yil 4 fevral, PQ-2293-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mobil aloqa milliy operatori faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 12.02.2014 y., № PQ-2126
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirishva telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasining yangilangantuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 30.10.2013 y., № PQ-2058
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarining kompyuter xavfsizligini ta’minlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori
6. Qirg‘izboev M., O’tamurodov A., Xojiyev T.N. Fuqarolik jamiyat. T.:”Mumtoz so‘z”, 2018
7. N. Qosimova va boshq. “Ixstisoslashgan jurnalistika” IX jild.-T. “O‘zbekiston” NMIU, 2019.-784-bet.